

**AGGLUTINATIV TILLARDA NORMATIV INFERENSIYA
(O'ZBEK HUQUQIY DISKURSI MISOLIDA)****Elova Dilrabo Qudratillayevna,***Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent**Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti**E-mail: dilraboelova@gmail.com**ORCID: 0000-0002-2329-1811*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilining agglutinativ morfologik qurilishi huquqiy matnda normativ inferensiya qanday yuzaga kelishiga ta'siri tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor normativ ma'noning faqat terminlar yoki gap mazmuni orqali emas, qo'shimchalar tizimi, nisbat shakllari, ko'makchili qurilmalar va sintaktik qamrov orqali ham shakllanishiga qaratiladi. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 239-moddasi - tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma, 248-moddasi - soliq bazasini aniqlash tartibi, 370-377-moddalari - jismoniy shaxslarning jami daromadi tarkibi misolida grammatik shakl bilan huquqiy talqin o'rtasidagi bog'lanish ko'rsatiladi. Tahlilda morfologik tahlil bosqichi, inferensial tiklash va deontik baholash bosqichlari qo'llanadi. Natijada agglutinativ tuzilma normativ matnda sintaktik qamrov noaniqligi, interpretativ kolliziya, terminologik diffuziya va inferensial kengayish kabi hodisalarni yuzaga chiqarishi aniqlanadi. Maqola pragmatlingvistika, deontik mantiq, diskurs tahlili va huquqiy interpretatsiya yondashuvlarini o'zbek huquqiy diskursi materiali bilan bog'laydi.

Kalit so'zlar: agglutinativ tipologiya, normativ inferensiya, huquqiy diskurs, lingvo-mantiqiy ekspertiza, deontik mantiq, o'zbek tili, soliq qonunchiligi, morfologik qatlam, interpretativ kolliziya, QQS, jismoniy shaxslar daromad solig'i.

Аннотация. В статье рассматривается влияние агглютинативной морфологической структуры узбекского языка на формирование нормативной инференции в юридических текстах. Особое внимание уделяется тому, что нормативное значение конструируется не только посредством юридической терминологии или пропозиционального содержания, но и через систему аффиксации, залоговые формы, послеложные конструкции и синтаксическую сферу действия. На материале статей 239 «Оборот по реализации товаров», 248 «Порядок определения налоговой базы» и 370–377, регулирующих состав совокупного дохода физических лиц, Налогового кодекса Республики Узбекистан в работе раскрывается взаимосвязь между грамматической формой и правовой интерпретацией. Анализ осуществляется в три этапа: морфологический анализ, инференциальная реконструкция и деонтическая оценка. Полученные результаты показывают, что агглютинативная структура узбекского языка в нормативных текстах может породить такие явления, как неоднозначность синтаксической сферы действия, интерпретационная коллизия, терминологическая диффузия и инференциальное расширение. В статье объединяются подходы прагматлингвистики, деонтической логики, дискурс-анализа и теории правовой интерпретации; эмпирическую основу исследования составляет материал узбекского юридического дискурса.

Ключевые слова: агглютинативная типология, нормативная инференция, юридический дискурс, лингво-логическая экспертиза, деонтическая логика, узбекский язык, налоговое законодательство, морфологический уровень, интерпретационная коллизия, налог на добавленную стоимость, налог на доходы физических лиц.

Abstract. This article examines how the agglutinative morphological structure of the Uzbek language influences the formation of normative inference in legal texts. Particular attention is given to the fact that normative meaning is constructed not only through legal terminology or propositional content, but also through the system of affixation, voice forms, postpositional constructions, and syntactic scope. Using Articles 239 (turnover from the sale of goods), 248 (procedure for determining the tax base), and 370–377 (components of the aggregate income of individuals) of the Tax Code of the Republic of Uzbekistan as case studies, the paper demonstrates the relationship between grammatical form and

legal interpretation. The analysis employs three stages: morphological analysis, inferential reconstruction, and deontic evaluation. The findings indicate that the agglutinative structure of Uzbek may give rise to such phenomena in normative texts as syntactic scope ambiguity, interpretive collision, terminological diffusion, and inferential expansion. The article integrates approaches from pragmalinguistics, deontic logic, discourse analysis, and legal interpretation with empirical material drawn from Uzbek legal discourse.

Keywords: *agglutinative typology, normative inference, legal discourse, linguo-logical expertise, deontic logic, Uzbek language, tax legislation, morphological layer, interpretive collision, value-added tax (VAT), personal income tax.*

Kirish. Huquqiy norma matnda mavjud bo‘ladi, lekin uning amaliy mazmuni faqat matnning o‘zidan mexanik tarzda kelib chiqmaydi. Qonun qanday tuzilgan, unda majburiyat kimga yuklangan, shart qaysi birlikka taalluqli, ruxsat va taqiq chegarasi qanday ifodalangan - bularning barchasi tilning ichki qurilishi bilan bog‘liq. Shu ma’nodagi huquqiy talqin masalasi faqat yuridik texnika muammosi emas. U morfologik, sintaktik va pragmatik vositalarning qanday ishlashini ham tekshirishni talab qiladi. Ingliz huquqiy tili misolida bu yo‘nalish ancha oldin shakllangan. Mellinkoff huquqiy tilning umumiy lingvistik tabiatini tavsiflagan bo‘lsa [10], Tiersma ingliz huquqiy diskursining leksik-sintaktik xususiyatlarini alohida tahlil qilgan [16]. Biroq bunday tadqiqotlarning katta qismi flektiv yoki analitik tillar materialiga tayangan. Agglutinativ tillarda, xususan turkiy tillar doirasida, morfologik tuzilma bilan normativ inferensiya o‘rtasidagi aloqa hali mustaqil metodologik masala sifatida yetarli darajada ajratilmagan.

O‘zbek tili bu jihatdan alohida material beradi. So‘z asosiga qo‘shiladigan affikslar grammatik ma’noni izchil qatlamlar orqali shakllantiradi. Huquqiy matnda esa bu qatlamlar ba’zan oddiy grammatik ko‘rsatkich bo‘lib qolmay, normativ talqinning o‘ziga ta’sir qiladi. Masalan, nisbat shakli harakat subyektini yashirishi yoki aniqlashtirishi mumkin. Qaratqich va qaralmish munosabatlari **normativ aloqadorlik chegarasini** kengaytiradi. Shart shakllari esa huquqiy oqibat qaysi holatda yuzaga kelishini belgilaydi. “*mumkin*”, “*haqli*”, “*shart*”, “*lozim*”, “*kerak*” kabi modal birliklar bu jarayonda deontik kuchni ifodalaydi, lekin ularning talqini har doim ham bir xil emas. Demak, o‘zbek huquqiy matnida normativ ma’no faqat termin yoki gap darajasida emas, morfologik qatlamda ham shakllanadi.

Ushbu maqola ana shu masalani markazga qo‘yadi. Tadqiqotda “*agglutinativ struktura* → *inferensiya* → *huquqiy talqin*” zanjiri nazariy model sifatida emas, balki normativ matnni tahlil qilishga xizmat qiladigan ishchi sxema sifatida qaraladi. Avval morfologik shakl aniqlanadi. Keyin shu shakl qanday yashirin ma’noga yo‘l ochishi ko‘rib chiqiladi. Oxirida bu ma’no huquqiy talqinga qanday ta’sir qilishi baholanadi.

Adabiyotlar tahlili. Nazariy manbalar ham shu ehtiyojdan kelib chiqib tanlanadi. Grice’ning implikatura haqidagi qarashlari matnda ochiq aytilmagan, ammo talqin jarayonida tiklanadigan ma’nolarni izohlashga yordam beradi [6]. Von Wrightning deontik mantiq konsepsiyasi majburiyat, ruxsat va taqiqni farqlash uchun zarur [17]. Sperber va Wilsonning relevantlik nazariyasi kontekst orqali chiqariladigan xulosalarni tushuntirishda

ishlatiladi [15]. Endicottning huquqiy noaniqlik haqidagi yondashuvi esa normaning chegarasi qayerda ochiq qolishini ko'rsatish uchun jalb qilinadi [4].

Empirik material sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining ayrim moddalarini tanlanadi [12]. Tahlilda modda matnidagi morfologik shakl, sintaktik qamrov va deontik ma'no alohida-alohida emas, bir-biri bilan bog'langan holda tekshiriladi.

Tahlil vositasida *qo'shimchalar, nisbat* yoki *modal birlik* matnda shunchaki grammatik belgi bo'lib qoladimi, yoxud normativ xulosani o'zgartiradigan omilga aylanadimi degan muammoga yechim izlanadi.

Agglutinatip tipologiya va normativ ma'no. Agglutinatip tillarda grammatik ma'no, ko'pincha, so'z asosiga ketma-ket qo'shiladigan morfemalar orqali yuzaga keladi. Bunda qo'shimchalar shunchaki bir-biriga qo'shib ketmaydi. Ularning o'z tartibi bor. Har bir affiks oldingi birlikka tayanadi, keyingisi uchun esa grammatik zamin yaratadi. Shu sababli so'z shakli bir qarashda yaxlit ko'rinsa ham, ichki tomondan bir necha qatlamli tuzilishga ega bo'ladi. Johanson turkiy tillar haqida fikr yuritarkan, affiks zanjirining nisbatan ochiq, tarkibiy qismlarga ajratib tahlil qilish mumkin bo'lgan tabiatini tipologik belgi sifatida ko'rsatadi [7]. Kononovning o'zbek tili morfologiyasiga oid tavsiflarida ham qo'shimchalarning ketma-ketligi, grammatik vazifasi va so'z shakli tarkibidagi o'rni markaziy masalalardan biri sifatida yoritilgan [8].

Huquqiy matnda ayni shu ochiqlik har doim ham talqinni yengillashtirmaydi. Ayrim hollarda u normativ ma'noni mayda birliklarga ajratib, talqin yukini oshiradi. Qonun matnida qo'shimcha faqat grammatik vazifa bajarmaydi. U harakat kim tomonidan bajarilayotganini, majburiyat kimga yuklanayotganini, subyekt matnda ochiq turibdimi yoki yashiringanmi, shart qaysi holatga bog'langanini ko'rsatishi mumkin. Talqin muammosi aynan shu joyda boshlanadi. Grammatik shakl mavjud, lekin uning normativ chegarasi ochiq ko'rsatilmagan. Masalan, *"to'lash"*, *"to'lanadi"*, *"to'latiladi"*, *"undiriladi"* shakllari bir semantik doira ichida turgandek ko'rinadi. Ular huquqiy munosabatni bir xil qurmaydi. *"To'lash"*da majburiyat bevosita subyektning o'z harakati sifatida beriladi. *"To'lanadi"*da bajaruvchi ortga chekinadi. *"To'latiladi"* va *"undiriladi"* shakllarida tashqi ta'sir, majburlov yoki vakolatli subyekt aralashuvi kuchayadi. Demak, grammatik shakl o'zgargan joyda normativ munosabat ham sezilmasdan siljiydi.

Bu siljishni oddiy uslubiy farq deb bo'lmaydi. Huquqiy matnda bitta nisbat qo'shimchasi yoki modal birlik ba'zan butun talqinni boshqa tomonga burib yuboradi. *Kim majbur? Kim haqli? Kim javobgar? Qaysi holat huquqiy oqibatni keltirib chiqaradi?* Bu savollarga javob faqat terminlardan emas, grammatik shakllardan ham izlanadi. A.Nurmonov nisbat kategoriyasining semantik imkoniyatlarini o'zbek tili morfologiyasi doirasida ko'rsatgan [11]. Bu yerda masala boshqa tomondan qo'yiladi. Nisbat, egalik, shart yoki modal shakl huquqiy diskursda qanday normativ yuk oladi? Demak, morfologiya bu maqolada shunchaki grammatik tavsif maydoni emas. U huquqiy talqin

ichida ishlaydigan, ba'zan ochiq ko'rinmaydigan, ammo normativ ma'noni siljitadigan qatlam sifatida qaraladi.

Deontik mantiq va huquqiy inferensiya. Huquqiy norma har doim biror xatti-harakatga munosabat bildiradi. Nimadir bajarilishi shart, nimagadir ruxsat beriladi, nimadir taqiqlanadi. Deontik mantiqda majburiyat, ruxsat va taqiq munosabatlari maxsus mantiqiy ko'rsatkichlar orqali belgilanadi. O – majburiyat, P – ruxsat, F – taqiq. Von Wright shu ko'rsatkichlar asosida deontik munosabatlarni formal tahlil qilish yo'lini ishlab chiqqan [17]. Huquqiy matnni tahlil qilishda ular foydali, chunki norma ichidagi deontik kuchni ajratishga imkon beradi. Shunga qaramay, tabiiy til mantiqiy formulaga to'liq sig'maydi. Ayniqsa qonun matnida.

O'zbek tilida deontik ma'no birgina vosita bilan berilmaydi. “*Kerak*”, “*lozim*”, “*shart*”, “*mumkin*”, “*haqli*”, “*taqiqlanadi*” kabi birliklar turli darajadagi normativ kuchni bildiradi. Ularning grammatik qurshovi ham muhim. Masalan, “*to'lashi kerak*” shaklida majburiyat ancha ochiq ko'rinadi. “*E'tibor berishi kerak*” esa ayrim kontekstlarda qat'iy yuridik majburiyat emas, tavsiya yoki umumiy talab ohangida tushunilishi mumkin. Demak, “*kerak*” so'zining o'zi hali yetarli mezon emas. Uning qaysi fe'l shakli bilan kelgani, qaysi subyektga bog'langani, norma matnida qanday oqibat bilan tutashgani ham tekshiriladi.

Bu yerda muhim farq bor. Mantiqiy tahlil “*O*”, “*P*”, “*F*” ko'rsatkichlarini ajratadi. Lingvistik tahlil esa shu operatorlar matnda qanday ko'rinishga kirganini ko'rsatadi. Huquqiy talqin aynan shu ikki qatlam orasida shakllanadi. Masalan, “*haqli*” bir qarashda ruxsat ma'nosini bildiradi. Lekin ayrim normativ kontekstlarda u vakolatni ham anglatadi. “*Mumkin*” esa har doim erkin tanlov degani emas, ba'zan qonunda nazarda tutilgan shart bajarilganda yuzaga keladigan huquqiy imkoniyatni bildiradi. Shu sababli deontik birliklarni alohida so'z sifatida emas, matn ichidagi vazifasi bilan baholash kerak.

Marmor huquqiy tilni tahlil qilar ekan, normaning amaliy mazmuni ko'pincha matndagi bevosita ma'nodan kengroq shakllanishini ko'rsatadi [9]. Qonun matnida ayrim bog'lanishlar qisqartiriladi, ayrim subyektlar yashirin qoladi, ba'zi oqibatlar esa bevosita emas, talqin orqali tiklanadi. Grice'ning implikatura haqidagi qarashlari shu nuqtada foydali bo'lishi mumkin [6]. Huquqiy matndagi yashirin ma'noni oddiy suhbatdagi implikatura bilan tenglashtirib bo'lmaydi. Suhbatda bunday ma'no ko'pincha vaziyat, ohang yoki suhbatdoshlar o'rtasidagi umumiy temaga tayanadi. Qonun matnida esa masala boshqacha. Yashirin qolgan ma'no keyinchalik majburiyatga, ruxsatga, taqiqqa yoki javobgarlikka ulanib ketishi mumkin. Shuning uchun bu hodisani shunchaki implikatura deb atash yetarli emas. Buni normativ inferensiya deb atasak maqsadga muvofiq bo'ladi. O'zbek huquqiy diskursida bu jarayon yanada murakkabroq kechadi. Sabab faqat terminlarda emas. Agglutinativ tuzilma deontik ma'noni ko'pincha qo'shimcha, nisbat, egalik, shart shakli va modal birliklar birikmasi orqali beradi. “*Taqdim etishi shart*”, “*taqdim etilgan hisoblanadi*”, “*taqdim etilmagan taqdirda*”, “*taqdim etilishi mumkin*” -

bularning barchasida bir xil harakat atrofida turli normativ vaziyatlar quriladi. Farq ba'zan bitta qo'shimchada, ba'zan modal birlikda, ba'zan esa shart konstruktsiyasining qamrovida yashirinadi. Shu nuqtada deontik mantiq lingvistik tahlil bilan tutashadi. Norma nimani buyuryapti, nimaga ruxsat beryapti, nimani taqiqlayapti - buni aniqlash uchun grammatik shaklning o'zi ham dalilga aylanadi.

Pragmalingvistik yondashuv va normativ matn. Nutq aktlari nazariyasida gap faqat axborot beribgina qolmay, u muayyan harakatni ham bajaradi. Austin va Searle shu jihatni *“illyokutsion kuch”* tushunchasi orqali izohlagan [1, 14]. Huquqiy norma uchun bu ayniqsa muhim. Chunki qonun matni oddiy xabar emas. U buyuradi, ruxsat beradi, cheklaydi, taqiqlaydi yoki vakolat beradi.

Shu sababli huquqiy normalarni yo'naltiruvchi nutqiy aktlar (directive speech acts) doirasida ko'rish mumkin. Ular adresatdan ma'lum xatti-harakatni kutadi. Soliq to'lovchi deklaratsiya topshiradi. Davlat organi tekshiruv o'tkazadi. Sud muayyan tartibda baho beradi. Lekin normaning kuchi har doim *ham “buyurilsin”, “taqiqlansin”, “ruxsat etilsin”* kabi ochiq performativ shakllarda kelavermaydi. Huquqiy matnda ko'pincha kuch yashirinroq ishlaydi. Bhatia huquqiy janr tahlilida aynan shu jihatni ko'rsatadi [2]. Normaning pragmatik vazifasi bitta fe'l bilan emas, matnning butun tuzilishi bilan yuzaga chiqadi.

O'zbek huquqiy matnlarida bu holat yanada sezilarli. Illyokutsion kuch ko'pincha modal birliklar, nisbat shakllari va harakat nomi konstruktsiyalari orqali beriladi. *“-ish tartibi belgilanadi”* deganda norma tartib o'rnatadi, lekin tartibni kim belgilashi ko'pincha keyingi matndan izlanadi. *“-ishi mumkin emas”* taqiqni bildiradi. *“-ishga haqli”* esa ruxsat yoki vakolat ma'nosiga yaqinlashadi. Bir qarashda bular oddiy grammatik qoliplarday ko'rinadi. Aslida esa normaning deontik xarakterini ushlab turadigan birliklar hisoblanadi.

Eng nozik joy bu qamrov masalasi. Modal yoki shart konstruktsiyasi gapning aynan qaysi qismiga taalluqli? Taqiq butun harakatga tegishlimi yoki faqat uning bir shartiga? *“haqli”* so'zi subyektga umumiy vakolat beryaptimi yoki faqat sanab o'tilgan holatlar doirasidami? O'zbek tilida bunday chegaralar har doim ham maxsus sintaktik marker bilan ko'rsatilmaydi. Natijada normaning illyokutsion kuchi grammatik shakl, gap tartibi va kontekst o'rtasida taqsimlanib ketadi. Lingvo-mantiqiy tahlil aynan shu taqsimlanishni tekshirishi kerak.

Agglutinativ inferensiya modeli. Ushbu maqolada agglutinativ inferensiya uch bosqichda tekshiriladi. Bu bosqichlar tayyor sxema sifatida emas, matn bilan ishlash tartibi sifatida olinadi. Avval so'z shakli ochiladi. Keyin shu shakldan qanday normativ xulosa chiqishi ko'riladi. Oxirida bu xulosa majburiyat, ruxsat, taqiq yoki ixtiyoriylik (fakultativlik) doirasiga joylashtiriladi.

Bosqich	Tahlil obyekti	Asosiy savol	Natija
---------	----------------	--------------	--------

Bosqich	Tahlil obyekti	Asosiy savol	Natija
<i>Morfologik tarkib tahlili</i>	O‘zak, nisbat, egalik, kelishik, inkor, shart shakli	Grammatik shakl normativ ma’noga ta’sir qilyaptimi?	Normativ yuk olgan morfologik birlik aniqlanadi
<i>Inferensial tiklash</i>	Matnda ochiq aytilmagan ma’no	Qaysi ma’no kontekst orqali tiklanyapti?	Yashirin yoki yarim yashirin normativ xulosa ochiladi
<i>Deontik baholash</i>	Majburiyat, ruxsat, taqiq, ixtiyoriylik	Tiklangan ma’no qanday huquqiy kuchga ega?	Normaning deontik maqomi belgilanadi

1-jadval. Agglutinatив inferensiya modelining asosiy tahlil bosqichlari.

1. Morfologik tarkib tahlili. Normativ matndagi muhim birliklar morfemalarga ajratiladi. O‘zak, nisbat qo‘shimchasi, harakat nomi, egalik shakli, kelishik, shart yoki inkor ko‘rsatkichi alohida tahlil qilinadi. Biroq bu oddiy grammatik tahlil emas. Muammo qo‘shimchani bor-yo‘qligini qayd etishda emas, uning normativ yukini aniqlashda. U ma’noga aralashyaptimi? Subyektni yashiryaptimi? Shartning chegarasini o‘zgartiryaptimi? Yoki faqat shakliy vazifa bajaryaptimi? Masalan, majhul nisbat bajaruvchi subyektni matndan chetga surishi mumkin, shart shakli huquqiy oqibatni muayyan holatga bog‘laydi, egalik qo‘shimchasi esa normativ taalluqlilik doirasini toraytiradi yoki kengaytiradi. Shu belgilar alohida emas, norma ichidagi vazifasi bilan tekshiriladi.

2. Inferensial tiklash bosqichi. Qonun matnida hamma narsa ochiq aytilmaydi. Ayrim subyektlar matndan tushib qoladi, ayrim shartlar kontekstdan tiklanadi, ayrim oqibatlar esa norma tizimi orqali anglashiladi. Shu nuqtada Grice’ning implikatura haqidagi qarashlari va Sperber hamda Wilsonning relevantlik nazariyasi yordam beradi [6, 15]. Bu nazariyalar tayyor talqin bermaydi. Matnda bevosita aytilmagan ma’no qanday tiklanishini tushuntirishga imkon beradi. Shu yerda agglutinatив shakl inferensiyaga yo‘l ochyaptimi yoki uning chegarasini toraytiryaptimi degan savol tug‘iladi.

3. Deontik baholash bosqichi. Aniqlangan ma’no huquqiy jihatdan qanday kuchga ega? Bu majburiyatmi, ruxsatmi, taqiqmi yoki faqat imkoniyatmi? Von Wrightning deontik ko‘rsatkichlari shu farqni tartibga solish uchun olinadi. O‘zbek huquqiy matnida bu farq ko‘pincha “kerak”, “lozim”, “shart”, “mumkin”, “haqli”, “mumkin emas” kabi birliklar orqali ko‘rinadi. Lekin bitta so‘zning o‘zi yetarli emas. “mumkin” ba’zan oddiy imkoniyatni bildiradi, ba’zan vakolatga yaqinlashadi. “haqli” ruxsat ma’nosida kelishi mumkin, ayrim kontekstlarda esa davlat organining amaliy vakolatini anglatadi. Shuning uchun modal birlik alohida emas, o‘zining morfologik va sintaktik qurshovida baholanadi.

Bu yondashuv huquqiy talqinning o‘rnini egallamaydi. Grammatik talqin huquqshunoslikda avvaldan bor. Bu yerda farq boshqa joyda. Grammatik shakl umumiy izoh sifatida emas, morfema, qamrov va inferensiya darajasida tekshiriladi. Shunda normativ ma’no qaysi birlikda ochiq berilgani, qaysi joyda yashirin qolgani, qaysi nuqtada esa turlicha talqinga yo‘l ochishi aniqroq ko‘rinadi.

Agglutinatив shakl

(qo‘shimcha, nisbat, egalik, ko‘makchi, shart shakli)

↓
Morfologik tarkib tahlili

↓
Inferensial tiklash
(matnda ochiq aytilmagan normativ ma'no)

↓
Deontik baholash
(majburiyat / ruxsat / taqiq / ixtiyoriylik)

↓
Huquqiy talqin
(soliq oqibati, subyekt, qamrov, javobgarlik)

1-chizma. Agglutinatив shakldan huquqiy talqingacha bo'lgan normativ inferensiya zanjiri.

Soliq kodeksi moddalari tahlili. 239-moddaning lingvo-mantiqiy tahlili.
Tovarlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma

Soliq kodeksining 239-moddasi qo'shilgan qiymat solig'i doirasida muhim vazifa bajaradi. U tovarlarni va xizmatlarni realizatsiya qilish bo'yicha aylanma nimadan iboratligini belgilaydi. Demak, modda oddiy ta'rif bermaydi. U QQS solinadigan harakatlar chegarasini chizadi. Shu chegaraning qanday ifodalangani esa lingvo-mantiqiy tahlil uchun bevosita material beradi.

Avvalo, "realizatsiya qilish" termini e'tibor talab qiladi. Bu birlik kundalik tildagi "sotish" ma'nosiga teng emas. Soliq qonunchiligida u kengroq ishlaydi. Tovarni sotish, ayirboshlash, bepul berish, ish bajarish yoki xizmat ko'rsatish kabi turli harakatlar bir normativ maydonga jamlanadi. Ayniqsa bepul berishning ham realizatsiya tarkibiga kiritilishi muhim. Chunki oddiy iqtisodiy tasavvurda realizatsiya, odatda, haq olish bilan bog'lanadi. Soliq normasida esa kompensatsiya bo'lmagan holat ham soliq oqibatini keltirib chiqarishi mumkin. Shu nuqtada leksik ma'no bilan normativ ma'no bir-biriga to'liq mos tushmaydi. "Bepul" yoki "beg'araz"lik iqtisodiy qarshi qiymat yo'qligini bildiradi, lekin bu holat soliq oqibatini istisno qilmaydi. Aksincha, qonun uni alohida tartibga solinadigan aylanma sifatida ko'radi.

"Tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish" konstruktsiyasi ham bejiz e'tibor tortmagan. Qavs ichidagi "xizmatlarni" elementi matnni ixchamlashtiradi. Qonun chiqaruvchi bir xil normativ rejimni tovarlarga ham, xizmatlarga ham tatbiq etmoqda. Shu bilan birga, bunday ixchamlashtirish talqin yukini oshiradi. Gap faqat "tovar" haqida ketayotgandek ko'ringan joyda xizmatlar ham shu sintaktik doiraga kiradimi? "Realizatsiya qilish bo'yicha aylanma" birikmasida "bo'yicha" ko'makchisi aynan qaysi birlikni qamrab oladi? Faqat realizatsiya harakatinimi yoki undan kelib chiqadigan butun soliq obyektinimi? Amaliy talqinda bu savollar odatda norma tizimi orqali hal qilinadi. Lingvistik jihatdan esa bu yerda qamrov masalasi bor. Qavs, kelishik va ko'makchi birgalikda normativ doirani belgilayapti.

239-modda matnida "kiritiladi" va "kiritilmaydi" shakllari alohida ahamiyatga ega. Farq ko'rinishda juda kichik. "-ma" inkor qo'shimchasi qo'shiladi, xolos. Huquqiy oqibat

esa mutlaqo boshqa tomonga o'tadi. "Aylanmaga kiritiladi" degani – operatsiya QQS hisobida inobatga olinadi. "kiritilmaydi" degani – u mazkur soliq bazasidan chiqariladi. Bu yerda agglutinatív tahlilning zarurati aniq ko'rinadi. Bitta morfema normatív chegarani o'zgartiradi. Shuning uchun bunday birliklar oddiy grammatik shakl sifatida emas, soliq oqibatini belgilovchi til elementi sifatida tekshirilishi kerak.

Bu modda misolida agglutinatív inferensiya uch nuqtada namoyon bo'ladi.

1. Terminning huquqiy kengayishi. "realizatsiya qilish" sotishdan kengroq normatív maydonni qamrab oladi.

2. Sintaktik qamrov. "tovarlarni (xizmatlarni)" va "bo'yicha" birliklari soliq obyektining chegarasini belgilaydi.

3. Inkor morfemasi. "kiritiladi/kiritilmaydi" qarama-qarshiligi orqali bir xil operatsiya soliq aylanmasi ichida yoki undan tashqarida talqin qilinadi.

Ko'rinadiku, 239-modda tahlilida morfologik shakl, sintaktik qamrov va normatív oqibat bir-biridan ajratib bo'lmaydigan darajada bog'langan.

248-moddaning morfologik tahlili. Soliq bazasini aniqlash tartibi. 248-modda qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha soliq bazasi qanday aniqlanishini belgilaydi. Bu yerda gap faqat hisob-kitob texnikasi haqida ketmaydi. Modda tovarlar va xizmatlarni realizatsiya qilish qiymati, chegirmalar, bepul berish, bozor qiymati, shaxsiy maqsadlarda foydalanish kabi holatlarni bir normatív maydonga jamlaydi. Shu sababli uning matni lingvo-mantiqiy tahlil uchun qulay material beradi. Termin, grammatik shakl va soliq oqibati bir-biriga zich ulanadi.

"Soliq bazasini aniqlash" iborasi bir qarashda oddiy protsessual nomlanishdek ko'rinadi. Aslida unda bir necha grammatik qatlam bor. "Soliq bazasi" birikmasida "baza" so'zi egalik shakli orqali "soliq" tushunchasiga bog'lanadi. "bazasini" shaklida esa egalik va tushum kelishigi birga kelib, bu birlikni keyingi harakatning obyektí sifatida ko'rsatadi. "Aniqlash" harakat nomi hisob-kitob jarayonini bildiradi. Shu yerda masala subyektga borib taqaladi. Aniqlash kimning vazifasi? Soliq to'lovchiningmi, soliq organiningmi yoki moddaning o'zi belgilagan hisoblash tartibimi? Matnda bu subyekt har doim ham ochiq nomlanmaydi. "aniqlanadi" shakli qo'llanganda esa bajaruvchi umuman ikkinchi planga o'tadi. Norma protsedurani ko'rsatadi, hisoblash tartibini belgilaydi, ammo uni amalda kim bajarishi ko'pincha kontekst va soliq munosabatlari tizimidan kelib chiqib aniqlanadi.

Bu holat deontik jihatdan ham muhim. "Soliq bazasi aniqlanadi" konstruktsiyasi ochiq buyruq bermaydi. Unda "shart", "lozim", "kerak" kabi modal birliklar ham yo'q. Shunga qaramay, gap oddiy xabar haqida ketmayapti. Norma soliq bazasini qanday hisoblash kerakligini belgilaydi va shu tartibni majburiy qiladi. Demak, majburiyat alohida modal so'zda emas, konstruktsiyaning o'zida turibdi. "aniqlanadi" shaklini faqat majhul nisbat sifatida ko'rish shu sababli yetarli emas. U normatív matnda majburiy protsedurani ifodalovchi vosita bo'lib ishlaydi.

248-moddaning yana bir murakkab tomoni “*narx*”, “*qiymat*”, “*bozor qiymati*” birliklari bilan bog‘liq. Bu so‘zlar bir-biriga yaqin semantik maydonda turadi, lekin huquqiy matnda ularni bemaolol sinonim deb bo‘lmaydi. “*narx*” ko‘pincha kelishuv yoki realizatsiya shartlari bilan bog‘lanadi. “*qiymat*” kengroq iqtisodiy bahoni bildiradi. “*bozor qiymati*” esa oddiy baho emas, muayyan sharoitda aniqlanadigan normativ mezondir. Shu uchlik soliq bazasini hisoblashda turli vazifa bajaradi. Agar ular bir-biriga aralashtirilsa, soliq bazasi ham boshqacha chiqishi mumkin. Bu yerda terminologik diffuziya (terminologik yoyilish) leksik darajada boshlanadi, keyin huquqiy oqibatga o‘tadi.

“*chegirma*” tushunchasi ham alohida tahlil talab qiladi. “*Chegirma hisobga olingan holda aniqlanadi*” tipidagi konstruksiyada harakatning o‘zi emas, uning hisob-kitobga ta’siri muhim. “*Hisobga olingan holda*” shakli natijaviy holatni bildiradi. Chegirma avval tan olingan, keyin soliq bazasi shu holatni inobatga olib belgilanadi. Matnning o‘zidan har doim ham hamma narsa ochiq ko‘rinmaydi. Qaysi chegirma nazarda tutilgan? U kim tomonidan berilgan? Shartnomaviy chegirmami, marketing xarakteridagi chegirmami, qonunda alohida belgilangan chegirmami? Bu savollar normaning o‘zida emas, uning konteksti va soliq munosabatlari tizimida javob topadi.

“*berilgan taqdirda*” shakli bu jarayonda muhim grammatik ko‘rsatkich bo‘lib turadi. “*-gan taqdirda*” konstruksiyasi shartni bildiradi, lekin shartning chegarasini har doim to‘liq yopmaydi. U faqat chegirma mavjudligini ko‘rsatadi. Chegirmaning huquqiy asosi, beruvchi subyekt va uni tan olish mezoni esa alohida tiklanadi. Bu oddiy suhbatdagi yashirin ma’no emas. Huquqiy matnda bunday tiklash normativ inferensiya tusini oladi. Talqin qiluvchi subyekt matndan, norma tizimidan va soliq amaliyotidan kelib chiqib, qaysi chegirma soliq bazasiga ta’sir qilishini aniqlaydi.

Shu jihatdan 248-modda agglutinativ inferensiya uchun muhim namuna beradi. “*bazasini aniqlash*”, “*aniqlanadi*”, “*hisobga olingan holda*”, “*berilgan taqdirda*” kabi shakllarda morfologik birliklar faqat grammatik vazifa bajarmaydi. Ular protsedura, subyekt, shart va oqibat o‘rtasidagi munosabatni tashkil qiladi. Aynan shu joyda lingvistik shakl soliq normasining amaliy talqiniga ulanadi.

370–377-moddalar. Jismoniy shaxslarning jami daromadi va terminologik diffuziya. Soliq kodeksining XIII bo‘limi jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘iga bag‘ishlangan. 53-bobda jami daromad tarkibi ochiladi. 370-modda umumiy doirani belgilaydi, keyingi moddalarda esa daromadning alohida turlari sanaladi. Mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar. Mulkiy daromadlar. Moddiy naf tarzidagi daromadlar. Boshqa daromadlar. Bu ketma-ketlik tashqi tomondan izchil ko‘rinadi, ammo uning ichki tasnif mezoni bir xil emas.

“*Jami daromadning tarkibi*” iborasida qaratqich va egalik munosabati orqali normativ obyekt hosil qilinadi. “*jami*” so‘zi bu obyektning umumiy qamrovini bildiradi. Bu yerda masala “*jami*” so‘zining grammatik o‘rnida emas. Asosiy masala – ushbu umumiy qamrov keyingi moddalarda qanday bo‘laklarga ajratilishida. 370-modda

chegarani chizadi. 371-377-moddalar esa shu chegaraning ichini turkumlaydi. Shu ma'noda "jami daromad" tayyor va yopiq leksik birlik emas, modda ketma-ketligi orqali ochilib boradigan normativ konstruksiyadir.

371-moddadagi "mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar" iborasi murakkab qurilgan. Unda daromadning manbasi emas, avvalo uning hosil bo'lish mexanizmi ko'rsatiladi. Mehnat bajariladi, unga haq to'lanadi, shu to'lov daromad sifatida tan olinadi. "Mehnatga" shaklidagi jo'nalish kelishigi harakatning nimaga qaratilganini bildiradi. "Haq to'lash" iqtisodiy munosabatni ochadi. "Tarzidagi" esa shu munosabatni daromad turiga aylantiradi. Norma daromadni shunchaki "mehnat daromadi" deb nomlamaydi. Uni to'lov mexanizmi orqali belgilaydi.

375-moddadagi "mulkiy daromadlar" iborasi ancha ixcham. Bu yerda tasnif mexanizmga emas, manbaga tayanadi. "Mulkiy" so'zi daromadning mulk bilan bog'liqligini bildiradi, ammo daromad qanday operatsiya orqali yuzaga kelgani nomning o'zida ochilmaydi. Sotishmi, ijarami, boshqa shakldagi foydami – buni moddaning ichki bandlaridan izlashga to'g'ri keladi. 371-moddada daromad turi jarayon orqali nomlangan bo'lsa, 375-moddada u manba orqali nomlanadi. Bu farq uslubiy tafovut emas, tasnifning mantiqiy asosiga tegishli.

376-moddadagi "moddiy naf tarzidagi daromadlar" boshqa turdagi konstruksiyadir. Bu yerda daromad pul shaklidagi tushum sifatida emas, shaxs olgan iqtisodiy foyda sifatida talqin qilinadi. "Naf" so'zi kundalik nutqda faol emas, u rasmiy-idoraviy va kitobiy uslubga yaqin turadi. Shu sababli "moddiy naf" iborasi faqat lug'aviy ma'no bilan ochilmaydi. Qaysi holat moddiy naf sanaladi? Qaysi foyda daromad sifatida e'tirof etiladi? Bu savollarga javob moddaning ichki tuzilishidan, soliq munosabatlari tizimidan va qo'llash amaliyotidan kelib chiqib aniqlanadi. "Tarzidagi" shakli esa moddiy foydani daromad toifasiga o'tkazuvchi grammatik vosita sifatida ishlaydi.

377-moddadagi "boshqa daromadlar" toifasi eng ochiq konstruksiya hisoblanadi. "Boshqa" so'zi oldingi moddalarda sanab o'tilgan daromad turlaridan tashqarida qolgan holatlarni qamrab oladi. U aniq nom bermaydi, chegarani ham to'liq yopmaydi. Vazifasi – tasnif tizimida qoldiq maydon qoldirish. Huquqiy texnika nuqtayi nazaridan bu tushunarli. Daromadning barcha shakllarini oldindan sanab chiqish qiyin. Lingvo-mantiqiy nuqtayi nazardan esa ayni birlik inferensial kengayishga yo'l ochadi. Talqin qiluvchi subyekt "boshqa" birligi orqali qaysi holatlar qamrab olinayotganini aniqlashi kerak. Bu toifa oldingi moddalarga kirmagan, ammo daromad sifatida e'tirof etiladigan holatlar bilan cheklanadimi yoki iqtisodiy foyda keltiruvchi yangi shakllarni ham o'z ichiga oladimi – talqin aynan shu chegarada murakkablashadi.

Terminologik diffuziya aynan shu joyda ko'rinadi. 371–377-moddalarda "daromad" tushunchasi bir joyda mehnatga haq to'lash mexanizmi orqali, boshqa joyda mulk manbasi orqali, yana bir joyda moddiy foyda shakli orqali, oxirida esa qoldiq toifa orqali aniqlanadi. Bularning barchasi "jami daromad" tarkibiga kiradi. Nomlanish mezon

esa bir xil emas. Natijada “*daromad*” tushunchasi modda ketma-ketligi bo‘ylab kengayadi, qatlamlanadi, ba’zi o‘rinlarda esa talqin talab qiladigan ochiq maydon qoldiradi.

Bu bo‘limda agglutinativ inferensiya aynan “*mehnatga*”, “*tarzidagi*”, “*mulkiy*”, “*moddiy naf tarzidagi*”, “*boshqa*” kabi grammatik birliklarda ko‘rinadi. Ular bir xil vazifa bajarmaydi. “*Mehnatga*” daromadning qaysi munosabatdan kelib chiqayotganini ko‘rsatadi. “*Tarzidagi*” daromadning shakli yoki hosil bo‘lish usulini belgilaydi. “*Mulkiy*” manbani oldinga chiqaradi. “*Boshqa*” esa tasnifdan tashqarida qolgan ochiq maydonni bildiradi. Shuning uchun 370–377-moddalarda muammo “*daromad*” so‘zining takrorlanishida emas, balki “*daromad*” huquqiy kategoriya sifatida turli grammatik shakllar va turli tasnif mezonlari orqali yig‘ilishida ko‘rinadi. Jami daromadni talqin qilishda lug‘aviy ma’no yetmaydi. Moddalarning grammatik qurilishi, nomlash usuli va tasnif mantig‘i ham hisobga olinadi.

Modda	Tahlil birligi	Grammatik/morfologik belgi	Lingvo-mantiqiy muammo	Huquqiy talqinga ta’siri
239-modda	“tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo‘yicha aylanma”	Qavsli birlik, “bo‘yicha” ko‘makchisi	Sintaktik qamrov noaniqligi	QQS solinadigan aylanma chegarasi aniqlanadi
239-modda	“kiritiladi / kiritilmaydi”	“-ma” inkor qo‘shimchasi	Normativ chegaraning o‘zgarishi	Operatsiya soliq aylanmasiga kirishi yoki kirmasligi farqlanadi
248-modda	“solih bazasi aniqlanadi”	Majhul nisbat, “-n” shakli	Subyektning yashirilishi	Solih bazasini kim aniqlashi talqin qilinadi
248-modda	“hisobga olingan holda”	Natijaviy holat konstruksiyasi	Shart va hisoblash tartibi bog‘lanishi	Chegirma solih bazasiga qanday ta’sir qilishi aniqlanadi
371-modda	“mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar”	Jo‘nalish kelishigi, “tarzidagi” shakli	Jarayon asosidagi kategoriyalash	Daromad turi to‘lov mexanizmi orqali belgilanadi
375-modda	“mulkiy daromadlar”	“-iy” sifat yasovchi qo‘shimchasi	Manba asosidagi kategoriyalash	Daromad mulk bilan bog‘liq manba orqali talqin qilinadi
376-modda	“moddiy naf tarzidagi daromadlar”	“moddiy”, “tarzidagi” shakllari	Foyda shakli orqali kategoriyalash	Pul bo‘lmagan iqtisodiy foyda daromad sifatida baholanadi
377-modda	“boshqa daromadlar”	Qoldiq toifa bildiruvchi birlik	Inferensial kengayish	Oldingi toifalarga kirmagan daromadlarni qamrab olish masalasi yuzaga chiqadi

2-jadval. Soliq kodeksi moddalari misolida grammatik shakl, lingvo-mantiqiy muammo va huquqiy talqin o'rtasidagi bog'lanish.

Agglutinativ strukturaga xos interpretativ hodisalar. 239, 248 va 370-377-moddalar tahlilidan ko'rinadiki, o'zbek huquqiy matnida noaniqlik faqat terminlar darajasida paydo bo'lmaydi. U grammatik shaklda, qo'shimchani qamrovida, ko'makchining qaysi birlikka bog'lanishida, shart va inkor shakllarining normativ oqibatga ulanishida ham yuzaga keladi. Shu asosda agglutinativ tuzilma bilan bog'liq bir necha interpretativ hodisani ajratish mumkin.

Sintaktik qamrov noaniqligi. Bu hodisa qo'shimcha, ko'makchi yoki postpozitsion birlikning aynan qaysi so'zga yoxud so'zlar guruhiga taalluqli ekanligi ochiq ko'rinmagan holatlarda yuz beradi. 239-moddadagi *“tovarlarni (xizmatlarni) realizatsiya qilish bo'yicha aylanma”* konstruktsiyasida *“bo'yicha”* ko'makchisining qamrovi shunday masalani yuzaga chiqaradi. U faqat *“realizatsiya qilish”* harakatiga bog'lanadimi yoki butun *“realizatsiya qilish bo'yicha aylanma”* birikmasini qamrab oladimi? Matnning o'zida bu chegara maxsus marker bilan ajratilmagan. Agglutinativ tuzilmada bunday noaniqlik qo'shimcha va ko'makchilar zanjiri murakkablashgan sari sezilarliroq bo'ladi.

Talqin kolliziyasi (interpretative collision). Bitta normativ konstruktsiya ikki xil talqinga ochiq bo'lishi mumkin. Har ikki talqin mantiqan asosli ko'rinsa-da, huquqiy oqibat jihatidan ular bir-birini istisno qiladi. 248-moddadagi *“aniqlanadi”* shakli ayni shunday noaniqlikni yuzaga chiqaradi. Soliq bazasini kim aniqlashi matnda ochiq nomlanmagan. Soliq to'lovchimi, soliq organimi yoki qonunda belgilangan hisoblash tartibining o'zimi? Majhul shakl protsedurani ko'rsatadi, bajaruvchi subyektini esa yashiradi. Talqin aynan shu nuqtada murakkablashadi.

Inferensial kengayish. Qonun matni hamma holatni sanab chiqmaydi. Bunday bo'lishi mumkin ham emas. Ayrim ma'nolar kontekst, norma tizimi va oldingi moddalarga tayanib tiklanadi. 377-moddadagi *“boshqa daromadlar”* toifasi shu jihatdan muhim. *“Boshqa”* so'zi oldingi moddalarga kirmagan daromadlarga ishora qiladi, lekin chegarani o'zi belgilab bermaydi. Qaysi daromad shu toifaga kiradi, qaysisi kirmaydi – bu normaning umumiy tizimidan kelib chiqib aniqlanadi. Bu jarayon Grice'ning implikatura haqidagi qarashlariga yaqin turadi [6]. Faqat huquqiy matnda yashirin ma'no oddiy kommunikativ ishora bo'lib qolmaydi. U soliq oqibatiga ulanadi. Shu bois bu yerda umumiy implikaturadan ko'ra normativ inferensiya haqida gapirish ma'qul.

Terminologik diffuziya. Termin bir modda doirasida emas, bir necha modda bo'ylab harakat qilganda uning mazmuni qatlamlanadi. 248-moddadagi *“narx”*, *“qiymat”*, *“bozor qiymati”* birliklari bir semantik maydonda turadi, biroq ularning normativ vazifasi bir xil emas. 371-377-moddalarda *“daromad”* termini ham *“mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar”*, *“mulkiy daromadlar”*, *“moddiy naf tarzidagi daromadlar”*, *“boshqa daromadlar”* kabi turli konstruktsiyalar orqali ochiladi. Bu yerda termin takrorlanadi, ammo har safar boshqa mezon bilan aniqlanadi. Birida mexanizm, birida

manba, birida foyda shakli, yana birida qoldiq toifa asos bo'ladi. Natijada terminning mazmuni matn bo'ylab yoyiladi va uni faqat lug'aviy ma'no bilan cheklab bo'lmaydi.

Referensial uzilish. Normativ matnda oldingi va keyingi birliklar o'rtasidagi bog'lanish har doim ham tayyor holda berilmaydi. Ba'zan "ushbu", "mazkur", "shu", "boshqa" kabi birliklar aloqani ushlab turadi. Ba'zan esa ular yetarli bo'lmaydi. Ularning qaysi birlikka qaytayotgani, qaysi modda yoki bandni nazarda tutayotgani kontekst orqali aniqlanadi. 370-moddadagi "jami daromad" tushunchasi keyingi moddalarda bo'laklarga ajratiladi, *mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar, mulkiy daromadlar, moddiy naf tarzidagi daromadlar, boshqa daromadlar*. Aloqa aniq saqlansa, tizim izchil o'qiladi. Aloqa bo'shshagan joyda esa daromad turini qaysi umumiy toifaga kiritish masalasi ochiq qoladi. Shu sababli bu hodisani faqat anaforik uzilish deb cheklash to'g'ri emas. Muammo ko'rsatish olmoshlaridagina emas, u moddalarning bir-biriga qanday ulanayotganida, normativ zanjirning qayerda uzilib yoki xiralashib qolayotganida ko'rinadi. Shuning uchun bu holatni kengroq ma'noda **referensial uzilish** deb atash ma'qul.

Normativ noaniqlik. Huquqiy matnda ayrim tushunchalar ataylab keng beriladi. 239-moddadagi "realizatsiya qilish" shunday birliklardan biri. U sotish bilan cheklanmaydi, ayirboshlash, bepul berish, ish bajarish va xizmat ko'rsatish kabi harakatlarni ham qamrab oladi. Bu kenglik qonunchilik uchun zarur bo'lishi mumkin, chunki soliq oqibatini faqat klassik sotish munosabatiga bog'lab qo'yish yetarli emas. Shu bilan birga, tushuncha qancha kengaysa, talqin yukining bir qismi matnni qo'llovchi subyektga o'tadi. Endicott tavsiflagan *vagueness* hodisasi, ya'ni huquqiy tushuncha chegarasining ochiq qolishi, bu yerda leksik darajada namoyon bo'ladi [4]. O'zbek huquqiy matnida esa noaniqlik faqat leksik birlikda emas, morfologik va sintaktik qurilishda ham paydo bo'ladi. Inkor qo'shimchasi, majhul nisbat, shart shakli yoki ko'makchi qamrovi normativ chegarani o'zgartirib yuborishi mumkin.

Morfologik qatlam. Normativ ma'no shakllanishining yashirin mexanizmi. Yuqoridagi tahlillar bitta xulosaga olib keladi. Normativ ma'no faqat terminlarda yashamaydi. U qo'shimchada ham bor. Nisbat shaklida, egalik zanjirida, shart konstruktsiyasida, sifat yasovchi qo'shimchalarda ko'rinadi. Shu sababli, Huquqiy matnni faqat leksik birliklar bo'yicha o'qish yetarli emas. O'zbek tilida morfologik qatlam normaning ichki mexanizmiga kirib boradi.

Avvalo, nisbat kategoriyasi normativ subyekt masalasiga bevosita tegadi. "Aniqlaydi" va "aniqlanadi" bir xil grammatik shakl emas. Huquqiy matnda ular bir xil normativ munosabatni ham bermaydi. "Soliq to'lovchi aniqlaydi" deyilsa, harakat egasi ochiq turadi. "Soliq bazasi aniqlanadi" shaklida esa protsedura oldinga chiqadi, bajaruvchi subyekt matndan chekinadi. 248-moddada uchraydigan "aniqlanadi", "belgilanadi", "hisobga olinadi" kabi shakllar aynan shu xususiyatga ega. Norma amalni ko'rsatadi, lekin uni bajaruvchi subyektini har doim ham ochiq nomlamaydi. Majhul nisbatning huquqiy og'irligi shu yerda seziladi.

Bu hodisa ingliz tilidagi passiv konstruktsiyalar bilan ma'lum darajada qiyoslanishi mumkin. Gibbons sud lingvistikasi doirasida subyektning yashirilishi huquqiy talqinga ta'sir qilishini ko'rsatgan. O'zbek tilida esa vaziyatning o'ziga xos tomoni bor. Majhullik alohida ajraladigan morfema orqali ifodalanadi. "-il", "-in", "-lan" kabi shakllar faqat grammatik vosita emas, normativ subyektning matnda ochish yoki yashirish mexanizmi hamdir. Shu sababli "belgilaydi" bilan "belgilanadi", "hisobga oladi" bilan "hisobga olinadi" o'rtasidagi farq kichik uslubiy tafovut emas. Birinchi holatda subyekt matnga kiradi, ikkinchisida esa u kontekstga suriladi.

Egalik qo'shimchalari va normativ referensiya. O'zbek huquqiy matnida egalik shakllari ko'pincha tushunchalar o'rtasidagi bog'lanishni ushlab turadi. "Jami daromadning tarkibi" iborasida "daromad" va "tarkib" qaratqich-egalik munosabati orqali ulanishi normativ obyektning hosil qiladi. Gap daromad haqida emas, aynan daromad tarkibi haqida ketadi. Keyingi moddalarda shu tarkib turli qismlarga ajratiladi.

Murakkabroq matnlarda egalik zanjiri yanada zichlashadi. Masalan, "soliq to'lovchining daromadlari", "daromadlarning tarkibi", "soliq bazasining miqdori", "chegirmalarning hisobga olinishi" kabi birikmalarda har bir egalik munosabati referensiyani boshqa tomonga buradi. Qaysi daromad? Kimning daromadi? Qaysi bazaning miqdori? Qaysi chegirma hisobga olinadi? Bunday savollar faqat leksik ma'no bilan hal bo'lmaydi. Egalik va qaratqich munosabatlari normativ referensiyani toraytiradi, ba'zan esa bir necha pog'onaga yoyadi. Talqin qiluvchi subyekt shu pog'onalarni qayta tiklashga majbur bo'ladi.

Kategoriylash masalasida ham grammatik shakl befarq emas. 371-377-moddalarda daromad turlari bir xil grammatik model bilan nomlanmagan. "Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar" jarayon va to'lov mexanizmi orqali quriladi. "Mulkiy daromadlar" manbaga tayanadi. "Moddiy naf tarzidagi daromadlar" foyda shaklini oldinga chiqaradi. "Boshqa daromadlar" esa oldingi tasniflardan tashqarida qolgan maydonni bildiradi. Bir tizim ichida jarayon, manba, foyda shakli va qoldiq kabi to'rt xil toifa nomlash mezonini ishlaydi.

Bu farq huquqiy talqin uchun befarq emas. "Mulkiy" sifatida daromadning manbasi ko'rsatiladi, "tarzidagi" konstruktsiyasida esa daromadning hosil bo'lish usuli yoki shakli muhimlashadi. "Moddiy naf" birikmasida daromad to'g'ridan-to'g'ri pul tushumi emas, iqtisodiy foyda sifatida o'qiladi. Shunday qilib, sifat yasovchi qo'shimchalar va atributiv konstruktsiyalar daromadni faqat nomlamaydi, balki uni muayyan huquqiy toifaga joylashtiradi.

Morfologik qatlamning yashirin mexanizmi aynan shu yerda bilinadi. Qo'shimcha kichik birlikdek ko'rinadi, ammo huquqiy matnda uning vazifasi kichik emas. U subyektning yashiradi, obyekt chegarasini toraytiradi, shartni belgilaydi, ba'zan tushunchani boshqa normativ toifaga o'tkazadi. Shuning uchun agglutinativ huquqiy matnda morfologik tahlil

ikkinchi darajali bosqich emas. U normativ ma'no qayerda ochiq berilganini, qayerda esa kontekst va inferensiya orqali tiklanishini ko'rsatadigan zarur tahlil vositasidir.

Muhokama va natija. Tahlil shuni ko'rsatadiki, o'zbek huquqiy diskursida normativ ma'no faqat termin tanlovi yoki gapning umumiy sintaksisi orqali shakllanmaydi. Morfologik qatlam ham bu jarayonga aralashadi. Ba'zan ochiq, ba'zan sezilmaydigan tarzda. Nisbat shakli subyektini matndan chetga suradi, egalik zanjiri referensiyani toraytiradi yoki kengaytiradi, shart konstruktsiyasi oqibatni muayyan holatga bog'laydi, modal birlik esa normaning deontik kuchini belgilaydi. Bu hodisalarni o'zbek tilining agglutinatив qurilishidan ajratib bo'lmaydi.

Agglutinatив tuzilma huquqiy matn uchun ikki xil imkoniyat yaratadi. Bir tomondan, qo'shimchalar alohida ko'rinadi; ularni morfemalarga ajratib, har birining normativ vazifasini tekshirish mumkin. Bu tahlil uchun qulaylik beradi. Ikkinchi tomondan, qo'shimchalar zanjiri uzaygan sari talqin ham murakkablashadi. Qaysi qo'shimcha faqat grammatik vazifa bajaryapti, qaysi biri normativ subyektini o'zgartiryapti, qaysi shakl shart yoki istisno chegarasini belgilayapti — bularni matndan avtomatik chiqarib bo'lmaydi. Shu sababli agglutinatивlik huquqiy matnda faqat "transparentlik" emas; u kompozitsion murakkablik manbai hamdir.

Sud lingvistikasi va huquqiy diskurs tahlilida e'tibor ko'pincha leksik-semantik darajaga qaratiladi. Haqorat bormi, tahdid bormi, termin qanday ishlatilgan, gapning umumiy mazmuni nimaga yo'naltirilgan — bunday savollar zarur. Biroq o'zbek huquqiy matni bilan ishlaganda bu daraja yetarli bo'lmaydi. QQS normalarida, xususan 239 va 248-moddalarda, "realizatsiya qilish", "aniqlanadi", "hisobga olinadi" kabi birliklar leksik ma'no bilan birga grammatik shakl orqali ham normativ yuk oladi. Daromad solig'i normalarida esa 370–377-moddalardagi "mehnatga haq to'lash tarzidagi", "mulkiy", "moddiy naf tarzidagi", "boshqa" kabi konstruktsiyalar daromad turlarini turli mezonlar asosida kategoriyalaydi. Bu yerda morfologiya yordamchi bezak emas. U tasnifning ichida ishlaydi.

Shu nuqtada agglutinatив inferensiya modeli amaliy ahamiyat kasb etadi. Huquqiy normani talqin qilishda tilshunoslik ekspertizasi avval morfologik shaklni ochishi, keyin shu shakldan kelib chiqadigan yashirin yoki yarim yashirin normativ ma'noni tiklashi, oxirida esa uning deontik kuchini aniqlashi mumkin. Bu tartib normani huquqshunos o'rniga talqin qilib bermaydi. Uning vazifasi boshqacha: talqin qaysi til birliklariga tayanayotganini, qaysi joyda matn ochiq, qaysi joyda esa inferensiya talab qilayotganini ko'rsatadi.

Modelning chegarasi ham bor. Morfologik tahlil huquqiy ma'noni to'liq hal qilmaydi. Qonun talqini faqat tilshunoslik masalasi emas; unda huquqiy tizim, sud amaliyoti, ma'muriy tartib, normaning maqsadi va qo'llanish sohasi ham qatnashadi. Tilshunoslik tahlili shu jarayonning bir qatlamini ochadi, xolos. Shu bois bu modelni

mutlaq talqin vositasi sifatida emas, normativ matndagi lingvistik asoslarni aniqlash usuli sifatida ko‘rish to‘g‘riroq.

Yana bir cheklov — material doirasi. Bu maqolada model asosan Soliq kodeksining QQS hamda jismoniy shaxslar daromad solig‘i bilan bog‘liq normalari asosida sinab ko‘rildi. Natijalar foydali, lekin ular hali barcha huquqiy sohalarga avtomatik ko‘chirilmaydi. Jinoyat, fuqarolik, ma‘muriy yoki protsessual huquq matnlarida morfologik qatlam boshqacha ishlashi mumkin. Boshqa turkiy tillarda ham vaziyat aynan shunday bo‘ladi, deb oldindan aytish ilmiy ehtiyotkorlikka zid. Keyingi tadqiqotlarda modelning qamrovi aynan shu yo‘nalishlarda tekshirilishi kerak.

Xulosa. Ushbu tadqiqotda o‘zbek huquqiy matnida normativ ma‘no faqat terminlar yoki gapning umumiy mazmuni orqali emas, morfologik qatlam orqali ham shakllanishi ko‘rsatildi. Agglutinativ tuzilma bu jarayonda oddiy grammatik fon vazifasini bajarmaydi. Nisbat shakli subyektni ochadi yoki yashiradi, egalik qo‘shimchalari referensiyani belgilaydi, modal konstruktsiyalar deontik kuchni yuzaga chiqaradi, sifat yasovchi shakllar esa huquqiy kategoriyalarni turkumlashda ishtirok etadi.

Soliq kodeksining 239-moddasi, 248-moddasi va 370–377-moddalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, normativ matndagi talqin muammolari faqat leksik noaniqlik bilan izohlanmaydi. “Realizatsiya qilish”, “aniqlanadi”, “hisobga olinadi”, “mehnatga haq to‘lash tarzidagi daromadlar”, “mulkiy daromadlar”, “moddiy naf tarzidagi daromadlar”, “boshqa daromadlar” kabi birliklarda grammatik shakl va huquqiy oqibat bir-biriga ulanib ketadi. Shu birliklar orqali sintaktik qamrov noaniqligi, interpretativ kolliziya, inferensial kengayish, terminologik diffuziya, referensial uzilish va normativ noaniqlik yuzaga chiqadi.

Maqolada qo‘llangan uch bosqichli tahlil tartibi — morfologik dekompozitsiya, inferensial rekonstruktsiya va deontik kvalifikatsiya — lingvo-mantiqiy ekspertiza uchun ishchi vosita sifatida taklif qilinadi. Uning vazifasi huquqiy talqinni almashtirish emas. Bu model normativ xulosa qaysi til birligiga tayanayotganini, qaysi joyda matn ochiq, qaysi joyda esa inferensiya talab qilayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, morfologik tahlil huquqiy ma‘noni yakka o‘zi hal qilmaydi. Qonun talqinida normaning maqsadi, tizimdagi o‘rni, sud va ma‘muriy amaliyot ham hisobga olinadi. Bu maqolada model Soliq kodeksining ayrim normalari asosida sinab ko‘rildi. Keyingi bosqichda uni jinoyat, fuqarolik, ma‘muriy va protsessual huquq matnlari, shuningdek boshqa turkiy tillar materiali bilan qiyoslash zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Austin, J. L. (1962). *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press.
2. Bhatia, V. K. (1993). *Analysing Genre: Language Use in Professional Settings*. London: Longman.
3. Coulthard, M., & Johnson, A. (2007). *An Introduction to Forensic Linguistics: Language in Evidence*. London: Routledge.
4. Endicott, T. (2000). *Vagueness in Law*. Oxford: Oxford University Press.

5. Gibbons, J. (2003). *Forensic Linguistics: An Introduction to Language in the Justice System*. Oxford: Blackwell.
6. Grice, H. P. (1975). Logic and conversation. In P. Cole & J. L. Morgan (Eds.), *Syntax and Semantics* (Vol. 3, pp. 41–58). New York: Academic Press.
7. Johanson, L. (2021). *Turkic*. Cambridge: Cambridge University Press.
8. Кононов, А. Н. (1960). *Грамматика современного узбекского литературного языка*. Москва–Ленинград: Издательство Академии наук СССР.
9. Marmor, A. (2014). *The Language of Law*. Oxford: Oxford University Press.
10. Mellinkoff, D. (1963). *The Language of the Law*. Boston: Little, Brown & Co.
11. Нурмонов, А. (1990). *Ўзбек тили морфологияси*. Тошкент: Ўқитувчи.
12. Ўзбекистон Республикасининг Солиқ кодекси. (2019, 30 декабрь). Янги таҳрир. <https://lex.uz/docs/-4674902>
13. Қиличев, Э. (1992). *Ўзбек тилининг амалий стилистикаси*. Тошкент: Ўқитувчи.
14. Searle, J. R. (1969). *Speech Acts: An Essay in the Philosophy of Language*. Cambridge: Cambridge University Press.
15. Sperber, D., & Wilson, D. (1986). *Relevance: Communication and Cognition*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
16. Tiersma, P. M. (1999). *Legal Language*. Chicago: University of Chicago Press.
17. von Wright, G. H. (1951). Deontic logic. *Mind*, 60(237), 1–15.

